



JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIYOSIY TIZIM NAZORAT FUNKSIYASINING O'RNI

Haydarov O.E.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti, katta o'qituvchi*

Tayanch so'zlar: nazorat tizimi, ijtimoiy nazorat, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, huquq, axloq, fuqarolik pozitsiyasi, siyosiy ong, huquqiy ong, demokratiya, ijtimoiy faollik.

Ключевые слова: система контроля, социальный контроль, общественный контроль, гражданское общество, право, мораль, гражданская позиция, политическое сознание, правосознание, демократия, социальный активизм.

Key words: control system, social control, public control, civil society, law, morality, civil position, political consciousness, legal consciousness, democracy, social activism.

Резюме:

Maqolada jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishda siyosiy tizim nazorat funksiyasining o'rnini ko'rsatib berishga e'tibor qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda insoniyat jamiyati va ijtimoiy tartib o'rtasidagi bog'lanishni ya'ni qonuniyatni ochish tadqiqotning maqsadidir. Ushbu maqsadga yetish uchun insoniyat jamiyati nazoratga muhtoj ekanligini anglab olish, nazorat va nazorat tizimi tushunchalarining ta'rifini berish, nazorat tizimi qanday elementlardan iborat ekanligi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish, nazorat tizimining asosiy ob'ekti huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ekanligini asoslab berish maqoladan ko'zlangan vazifalar bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotning ob'ektini siyosiy tizim, nazorat, nazorat tizimi va uning elementlari tashkil qiladi. Tadqiqotning predmetini esa nazoratning mohiyati, maqsad va vazifalari, nazorat tizimining elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tashkil qiladi. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy yangiliklarga nazorat tizimining samarali ishlab turishinin ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirishga ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Demokratiyada nazoratni muhimligi shundaki xalq o'zini nazorati orqali demokratiyani amalga oshiradi. Inson tabiatan nazoratga muhtoj ayniqsa, jamiyatni boshqarayotgan mansabdor shaxslar, deputatlar va barcha darajadagi rahbarlar xalqni nazorati ostida bo'lishlari kerak. Bu demokratiyani muhim talabidir. Chunki barcha odamlarda tabiatan egoizm bor va nazoratsizlik oqibatida odam faqat o'zini manfaatlarini quliga aylanib qolishi mumkin. Xalqni orasidan ya'ni pastdan chiqqan rahbar yoki deputat xohlaydimi, xohlamaydimi u xalqdan ajralib qoladi. Shuning uchun uni xalq pastdan nazorat qilib turishi kerak bo'ladi. Demokratiya quyida namoyon bo'ladi.

Резюме:

В статье выделена роль контрольной функции политической системы в установлении общественного порядка, который является важным условием развития общества. Другими словами, человеческое общество и социальный порядок – это цель открытия связи, т.е. ее поддержания. и обоснование соблюдения этических стандартов являются частью целей



статьи. Объектом анализа является система, контроль, система управления и ее проверка. Предметом исследования является контроль, цели и задачи, взаимозависимость контроля и управления. Ожидается, что деятельность научных исследователей будет контролироваться предусмотренным механизмом эффективного производства под контролем научных инноваций, ожидаемых от исследований. Важность демократии и контроля заключается в реализации демократии через самоконтроль людей. Человеку по своей природе нужен контроль, особенно чиновники, депутаты и все управление обществом должно быть под контролем народа. Это важное требование демократии. Потому что все люди по своей природе эгоистичны, и отсутствие контроля может сделать их только рабами детей. Хочет того лидер или депутат из народа или нет, он отделяется от народа. Для этого ей придется управлять людьми снизу. Демократия проявляется внизу.

Summary:

The article highlights the role of the control function of the political system in establishing public order, which is an important condition for the development of society. In other words, human society and social order are the goal of opening communication, i.e. its maintenance. and the justification for compliance with ethical standards are part of the objectives of the article. The object of analysis is the system, control, management system and its verification. The subject of the study is control, goals and objectives, interdependence of control and management. The activities of scientific researchers are expected to be controlled by the envisaged mechanism of efficient production under the control of scientific innovation expected from research. The importance of democracy and control is to realize democracy through people's self-control. Man by nature needs control, especially officials, deputies and all management of society should be under the control of the people. This is an important requirement of democracy. Because all people are selfish by nature and lack of control can only make them slaves to children. Whether a leader or deputy from the people wants it or not, he separates himself from the people. To do this, she will have to manage people from below. Democracy manifests itself below.

Kirish. Insonda ijtimoiy ong shakllanganidan boshlab baxtli hayotni ta'minlaydigan adolatli jamiyatni orzu qilib va bunday jamiyatni qurishni davlat va hokimiyat bilan bog'liq deb hisoblab kelmoqda. Davlat odamlarga baxtli hayotni ta'minlashi uchun eng avvalo jamiyatda tartib o'rnatishga qodir nazoratni amalga oshiradigan siyosiy tizim shakllanishi lozim. Shuning uchun O'zbekiston tanlagan demokratik taraqqiyot va bosh maqsadimiz bo'lgan ozod, obod va farovon jamiyat qurish ham, eng avvalo, jamiyatda tartib o'rnatilishga bog'liq. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatish barcha vaqtlarda donishmandlarni o'ylantirib kelgan eng dolzarb muammo bo'lib kelgan. Platon o'zining "Davlat" nomli asarida jamiyatda tartib bo'lishi uchun jamiyatni intellektual elita boshqarishi kerak degan bo'lsa, Aristotel o'zining "Siyosat" nomli asarida jamiyatda tartib bo'lishi uchun o'rta sinf kuchli bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. Abu Nasr Forobiy esa jamiyatda adolatli ijtimoiy tartibning o'rnatilishini ma'naviy yuksalishda ko'radi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda siyosiy fanlarning rivojlanishi asosan mustaqillik yillarida boshlanganligini inobatga olsak siyosiy mavzulardagi izlanishlarni, jumladan, "Jamiyat taraqqiyotida siyosiy tizim nazorat funksiyasining o'rni" mavzusini yetarli darajada o'rganilmaganligi



anglab olish mumkin. Mustaqillik yillarida nazorat tizimining turli elementlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida jamoatchilik nazoratining rolini oshirish muammolariga doir fikrlar O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov hamda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevlarning asarlarida aks etgan. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, jamoatchilik nazorati bilan bog'liq masalalar xorij olimlaridan Jon Xellouell, Diyego Valades, Entoni Giddens, V.P.Belyayev, K.S.Belskiy, E.A.Mashtakova, A.B.Yerisyan, S.A.Denisov, A.M.Tarasov, V.G.Smolkov, V.V.Fedorov, A.N.Pilipenko, Y.A.Dmitriyev, V.K.Rudenko, V.G.Smolkov, V.Y.Chirkin kabilar tomonidan o'rganilgan. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining o'ziga xos xususiyatlari A.Jalilov, A.O'tamurodov, M.Qirg'izboyev, A.Begmatov, F.Nabiyev, N.Jo'rayev kabi olim va tadqiqotchilar ishlarida muayyan darajada o'z ifodasini topgan.

Albatta ushbu ilmiy ishlar nazorat tizimini ilmiy jihatdan tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Lekin ular asosan nazorat tizimining u yoki bu elementiga bag'ishlangan bo'lib, uni tizim sifatida o'rganish nazardan chetda qolib kelgan. Vaholanki nazorat samarali bo'lishi uchun u tizim shaklida bo'lishi lozim. Agar nazorat tizim shaklida bo'lmasa, u ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lmaydi. Nazorat tizimini shakllantirish esa uni tizim sifatida ilmiy tadqiq qilishni taqozo etadi.

Natija va muhokama. Hozirgi kunda ham insoniyat oldida turgan eng murakkab muammo adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun huquq va axloq normalariga rioya qilishni ta'minlaydigan nazorat tizimi shakllangan bo'lishi lozim. Jamiyatni bilim boshqargan taqdirdagina ijtimoiy tartibni o'rnatish mumkin bo'ladi. Shuning uchun hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy odamlarning najoti faqat bilim va undan boshqasi bo'lmagay deb yozib qoldirgan. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini ilmiy asosda boshqarish jamiyatdagi voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish imkoniyatini berib xato qilmasdan to'g'ri harakat qilishni ta'minlaydi. Eng muhimi jamiyatda tartib o'rnatishga xizmat qiladigan nazorat tizimini shakllanishi va samarali ishlashini ta'minlaydi. Chunki, ilm jamiyat taraqqiyotining muhim sharti tartib ekanligini va tartib o'rnatish uchun esa nazorat tizimi uzilishsiz ishlab turishi kerakligini anglab olish imkoniyatini beradi. Ilmi yetuk odam nazoratsiz jamiyatda tartib o'rnatib bo'lmasligini biladi.

Ijtimoiy nazoratning asosiy ob'ektlari bo'lib huquq va axloq hisoblanadi. Ular to'g'risida fikrimiz mukammal bo'lishi uchun nazorat va nazorat tizimi degan

tushunchalarni chuqurroq anglab olishimiz lozim. Nazorat mazmuniga ko‘ra ichki va tashqi, shakliga ko‘ra esa yuqoridan va quyidan bo‘ladi. Ichki nazorat har bir odam o‘z xulqini o‘zi nazorat qilishini anglatadi va bu ma’naviyat orqali ta’minlanadi. Ma’naviyati yuksak odamda ichki nazorat kuchli bo‘ladi. Shu o‘rinda yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ekanligini anglab olish mumkin. Bu yerda qanday hokimiyat eng kuchli hokimiyat degan savolga javob berish lozim bo‘ladi. Eng kuchli hokimiyat bu insonning o‘z ustidan bo‘lgan hokimiyatidir! Hokimiyat bu kuch. Kuch esa ma’naviyat orqali shakllanadi. Ma’naviyat inson irodasini kuchli qilib ichki nazoratni mustahkamlaydi. Ma’naviyati yuksak odamda o‘zini nazorat qilish imkoniyati kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham ma’naviyat – yengilmas kuch deb ta’rif berilgan. Tashqi nazorat davlat va jamiyat tomonidan huquq va ahloq vositasida amalga oshiriladi. Nazoratni yuqoridan davlat amalga oshirsa, quyidan fuqarolik jamiyati amalga oshiradi. Davlat va jamiyat nazoratini siyosiy tizim nazorati degan tushuncha ifodalaydi. Chunki siyosiy tizim deganda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari tushuniladi.

Nazorat to‘g‘risidagi fikrlarimiz mukammal bo‘lishi uchun yuqorida ta’kidlaganimizdek, nazorat tizimi degan tushunchani anglab olishimiz lozim. Nazorat tizimi deganda davlat va fuqarolik jamiyatiga tegishli o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qancha nazorat vositalarining yaxlitligidan iborat bo‘lgan siyosiy tizim nazoratini tushunish lozim. Agar shu tizimdagi biror-bir element yoki vosita ishlamasa bu tizimning buzulishiga yoki ishlamasligiga olib keladi. Hozirgi kunda respublikamizda jamoatchilik nazoratining uchta asosiy vositasi shakllanmoqda. Bular deputatlar korpusi, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalar bo‘lib, ular bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan yaxlit tizimni tashkil qiladi. Nazorat tizimi elementlari o‘rtasida nazoratni amalga oshirish borasida ijtimoiy hamkorlik o‘rnatilishi lozim. Nazorat tizimi har bir jamoada tartib o‘rnatish orqali jamiyatda tartibni ta’minlaydi. Har bir jamoada tartib o‘rnatilishi huquq va axloqqa rioya qilish ta’minlanib sog‘lom muhit shakllanishi bilan bog‘liq. Sog‘lom muhit deganda adolat bilan razolat o‘rtasida kurash ketganda oxir oqibatda adolat g‘alaba qozonadigan muhit tushuniladi. Buning uchun eng avvalo insonning ichki dunyosida adolat g‘alaba qozonishi kerak. Adolat esa munosiblikni ya’ni mehnatga yarasha haq, jinoyatga yarasha jazo va insonning jamiyatdagi ahamiyati bilan mavqei o‘rtasidagi munosiblikni anglatadi. Nazorat tizimi barcha jamoalarda ana shu munosiblikni ta’minlashga qaratilishi lozim.

Jamiyatda hech bir inson nazorat tizimining ishlashidan chetda qolmasligi uning ishlamasligidan yoki uning uzilishidan manfaatdor bo‘lmasligi kerak. Hatto manfaatdor bo‘la olmaydi, deb aytish to‘g‘riroqdir. Chunki nazorat tizimi



ishlamaydigan joyda hech kim baxtli bo'la olmaydi. Baxtlilikning eng muhim sharti bu insonda qo'rquvsiz erkin yashash hissidir. Bunday hissiyot faqat tartib o'rnatilgan jamiyatda ya'ni qonunga rioya qilish amalda ta'minlangan jamiyatda bo'lishi mumkin. Bu esa kuchli nazorat tizimi orqali ta'minlanishi mumkin.

Nazoratni siyosiy tizim ya'ni davlat va jamiyat hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Nazorat tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun nima nazorat qilinishi kerakligini aniq bilish kerak. Qonunga va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Qonun va axloq ijtimoiy hayotni barcha sohalarida amal qiladi. Qaysi sohada yoki qaysi jarayondagi qonunga rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Albatta, barcha jarayonlarda qonunga va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Lekin eng muhimi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayonida qonun va axloqqa rioya qilish qat'iy nazorat ostiga olinishi lozim. Ushbu jarayondagi qonun buzilishi holatlari boshqa ko'plab ijtimoiy muammolarni sababi bo'lib hisoblanadi. Mashhur Ibn Sino o'zining asarlarida kasallikni emas, uning sababini davolash kerak deb yozib qoldirgan. Sabab bartaraf qilinmasa, oqibat bartaraf qilinmasligi allaqachonlar isbotlangan haqiqatdir. Barcha sohada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishda bilim va mas'uliyat asosiy mezon bo'lishini nazorat qilish kerak. Agar kadrlarni tanlash tanish-bilishchilik, oshna-og'aynigarchilik va poraxo'rlik asosida amalga oshirilsa, bunday jamiyatda nazorat tizimi samarali ishlamaydi.

Nazorat tizimi jamiyatda tartib o'rnatishning muhim sharti ekan, siyosiy partiyalar va ularning deputatlar guruhlarini asosiy e'tiborni nazorat tizimini takomillashtirishga qaratishlari lozim. Siyosiy partiyalar o'rtasidagi kurash nazorat tizimining mukammal loyihalarini ishlab chiqarish borasida bo'lishi kerak. Partiyaviy nashrlar nazorat tizimini takomillashtirish masalalarini qizg'in muhokama qiladigan minbarga aylanishi lozim. Umuman ommaviy axborot vositalari asosiy e'tiborni nazorat tizimini takomillashtirish masalalariga qaratishlari kerak. Mukammal nazorat tizimi qonun ustuvorligi va jazoning muqarraligini ta'minlaydi. Buning ahamiyatini «buyuk bobomiz Amir Temurni qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi degan dona so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr berganligidan» ham bilish mumkin.

Demokratiyada nazoratning muhimligi shundaki xalq o'zining nazorati orqali demokratiyani amalga oshiradi. Inson tabiatan nazoratga muhtoj, ayniqsa, jamiyatni boshqarayotgan mansabdor shaxslar, deputatlar va barcha darajadagi rahbarlar xalqning nazorati ostida bo'lishlari kerak. Bu demokratiyaning muhim talabidir.

Xulosa. Zamonamiz mohiyati bo‘lgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari konsepsiyasi jamiyatda tartib o‘rnatishga xizmat qiladigan huquq va axloqqa rioya qilishni nazorat qilishda davlat nazorati va fuqarolik jamiyati nazorati o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikni taqozo etadi. Siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlarida qayd qilingan jamoatchilik nazorati masalalari nazorat tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, ijtimoiy nazoratni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi muhayyo bo‘lishi uchun jamiyatni ilm va ma’naviyat boshqarishi kerak. Mamlakatimizda jamiyatni ilm va ma’naviyat asosida boshqarish uchun barcha siyosiy, huquqiy va ma’naviy asoslar yaratilgan. Jamiyatni ilm va ma’naviyat asosida boshqarish ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir bo‘lgan nazorat tizimini, uni harakatlantiradigan mexanizmni va uning tarkibiy qismi bo‘lgan siyosiy partiyalarning jamoatchilik nazoratini shakllantira oladi. Jamiyatdagi tartib har bir jamoadagi tartibdan tashkil topishini doimo esda saqlash lozim. Shuning uchun nazorat tizimi har bir jamoada sog‘lom muhitni ya’ni adolatni qaror toptirishga qaratilishi lozim. Ana shunda respublikamizda jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan asosiy omil, ya’ni tartib o‘rnatiladi. Tartib esa jamiyat taraqqiyotini ta’minlab, farovon jamiyat sari etaklaydi.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари . Тошкент, 1997 й. 280 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик барча даражадаги раҳбарларнинг кундалик ҳаёт қондаси бўлиши керак. Тошкент. Ўзбекистон. 2017 йил.
3. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2017 йил. ва бoшқ.
4. Набиев Ф.Х. Юксак маънавият ва етук сиёсий маданият. «Маҳалла», 2010 йил, 29 апрель.
5. Набиев Ф.Х. Демократия ва тартиб интизом қатъий назоратни талаб қилади. «Зарафшон». 2010 йил, 27 май.
6. Haydarov O. E. Jamoatchilik nazorati tushunchasi tarixidan //научный фокус. – 2023. – т. 1. – №. 7. – с. 1173-1176.
7. Qoraboyev S. Metal. Jamoatchilik tinglovi–jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakli sifatida //agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. – 2022. – с. 1174-1176.
8. Эркинович Х, О. Жамоатчилик назорати – маҳалла институтининг муҳим йўналиши // pedagogs jurnali. – 2022. – Т. 11. – №. 4. – с. 135-139.
9. Sattorov, M., & Ostonov, J. (2023). Yangi O‘zbekistonda yoshlarning estetik didini rivojlantirishda maishiy turmush estetikasining o‘rni va ahamiyati. talqin va tadqiqotlar, 1(35).
10. Sattorov, M., & Ostonov, J. (2023). Tabiatni falsafiy anglash zarurati, va uning o‘ziga xos xususiyatlari. pedagogs, 47(2), 116-120.
11. Саттаров, М. Д. (2019). Социально-философские проблемы формирования эстетического отношения к природе у молодежи. наука и мир, 1(12), 19-20.